

Xalqaro Nordik Universiteti Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti
1-MS-23 guruhi talabalari bilan o‘tkazilgan Axborot soati
HISOBOTI

2024–2025-o‘quv yilining to‘rtinchi haftasida o‘tkaziladigan “Axborot va tyutorlik soati” mashg‘ulotini **“Ustozlik – qadri buyuk muallim”** mavzusida Xalqaro Nordik Universiteti Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti 1-MS-23 guruhi talabalari bilan yuqori saviyada o‘tkazildi.

Axborot soatida talabalar bilan, ota-ona voyaga yetkazishi va birinchi ustozlik ekanligi, ustoz esa unib-o‘shishi, kamolatga erishishi, ilm-ma‘rifat cho‘qqilarini zabt etishiga ko‘maklashadigan shaxs egasi ekanligi, o‘z umrini, qalb qo‘rini, aql-idrokini, tajribasi va bilimni yo‘lingga sarf etishi, yutug‘ingni ko‘rib quvonishi, muvaffaqiyatsizligingdan g‘am-anduh chekishi to‘g‘risida qisqacha suhbat yuritildi. Shuningdek, har bir aql-zakovatli, fahm-farosatli odam “Ustozlar va murabbiylar” bayram kunida ham eng birinchi bo‘lib o‘zining doimiy peshqadamlari bo‘lmish o‘z ota-onasidan boshlab, ustoz va murabbiylarini ko‘ngillarini shod qilib, bebaho, betakror va beqiyos duolaridan bahramand bo‘lishga shoshilishi lozim ekanligi to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tildi.

Dars mobaynida talabalar bilan mavzu yuzasidan savol- javoblar o‘tkazildi. Ta’lim jarayoni bilan bog‘liq muommolar ham bartaraf qilindi.



Dekan o‘rinbosari:

J.T.Xoshimov

Tyutor:

I.A. Ismatov